



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



60	Saida NORMAMATOVA, Surxondaryo qipchoq shevalarida chorvachilik oid leksika	703
61	Feruza QOSIMOVA, O‘zbek dialektologiyasida qo‘llanilgan transkripsion belgilar tizimi	707
62	Dilnoza RAIMBERDIYEVA, “Oychinor” dostonining fonetik dialektizmlari tahlili	711
63	Shohida MAMARAJABOVA, Uzun tumani areali bo‘ylab qo‘ng‘irot shevalarining tarqalishi	713
64	Shahzoda MURODOVA, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida boshlanma	717
65	Mohidil RAJAMATOVA, Parkent tumani folklori namunalari tahlili	723
66	Holida HUSANOVA, “Zarbulmasal”dagi maqollar tahlili	726
67	Gulsevar TURSUNOVA, Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qo‘shgan hissasi	730
68	Malika AMINJONOVA, Namangan o‘zbek shevalarining o‘zbek adabiy tiliga munosabati	735
69	Behruz BOBOYOROV, O‘zbek tilida blingvizm hodisasi va uning o‘rganilish talqinlari	739
70	Nazokat QODIROVA, Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari leksikasining tematik guruhlar	745
71	Shodiya QOSIMOVA, Muyassar XOLOVA, O‘zbek milliy korpusiga yozma matnlarni kiritishning metodologiyasi: tematik va metama’lumotli (Mingbuloq tumani misolida)	748
72	Muborak XAYDAROVA, Muyassar XOLOVA, Dialekt va nutq madaniyati	751
73	Muxlisa KUCHIMOVA, Mifologiyada hayvon obrazlarining badiiy ifodasi	748
74	Marjona TOG‘AY, “Qoraqayun” romanida qo‘llangan leksik dialektizmlar tahlili	752

“GO‘RO‘G‘LI” DOSTONLARIDA BOSHLANMA THE BEGINNING IN THE "GOROGLI" EPISTLES

Shahzoda MURODOVA,

ToshDO‘TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HFHM8558

Annotation. *This article explores the structural and artistic characteristics of the traditional introduction (prologue) in the “Go‘ro‘g‘li” epic cycle. The introductory part of the epic plays an important role in preparing the audience for the narrative, establishing the ideological direction, and reflecting the performer's (bakhshi) creative mastery. Through textual analysis, the paper examines the composition of these epic openings, their thematic functions, and the use of traditional folklore formulas. Furthermore, the study identifies how these prologues serve to bridge the mythical world with reality, ensuring the integrity of the epic cycle.*

Key words. *“Go‘ro‘g‘li” epic, introduction, prologue, epic formula, bakhshi, folklore tradition, composition, Uzbek oral creativity, narrative structure. formula.*

O'zbek folklorida “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining tutgan o‘rni beqiyos. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxividagi ushbu turkumga mansub 60 dan ortiq dostonlar saqlanadi va ularga Xorazm “Go‘ro‘g‘li”sini ham qo‘shsak, turkum dostonlarining umumiy soni 100 ga yaqinlashib qoladi. Ayni vaqtda bu dostonlarning har biri o‘nlab variantlarga ega. Umumiy hisobda “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining soni 100 dan ortadi.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarining har biri mustaqil ravishda ijro etilgan va muayyan nomga ega. Ayni paytda bu asarlar voqealar bayonida mantiqan bog‘lanib keluvchi silsilani – yaxlit bir katta turkumlikni tashkil etadi. Shu bilan birga ichki biografik xarakterga ega kichik turkumlar ham mavjud. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari nafaqat o‘zbeklar, balki Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari orasida ham keng tarqalgan. Folklorshunoslikda bu dostonlarni umumlashtirgan holda ikki tarmoqqa – Kavkazorti va Yaqin Sharq versiyalari (turk, ozarbayjon, arman, gruzin va boshqalar) hamda Markaziy Osiyo versiyalari (o‘zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq, tojik va boshqalar)ga ajratiladi. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining bu qadar katta hududlarga tarqalib, ommalashuvi uning murakkab tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tganligi, qadim ildizlarga ega ekanligidan dalolat beradi. Albatta, bu ikki tarmoqqa tegishli namunalar o‘rtasida o‘zaro umumiy jihatlar mavjud. Lekin ularda har bir xalqning tarixiy taqdiri, yashash sharoiti, epik an‘analari bilan bog‘liq o‘ziga xosliklar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” dostonlari hajmi, keng qamrovdagi voqealar bayoni va ko‘p variantlarga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Bu o‘rinda Markaziy Osiyo versiyalarining Kavkazorti va Yaqin Sharq versiyalaridan muhim farqli tomoni “Go‘ro‘g‘li” turkumining qahramon tug‘ilishi haqidagi doston bilan boshlanishidir. Bu syujet tizimi Kavkazorti va Yaqin Sharq versiyalarida saqlanib qolmagan. Eng e‘tiborli tomoni shundaki, Markaziy Osiyo versiyalari orasida birgina o‘zbek dostonlarida qahramonning tug‘ilishi ikki xil talqinda uchraydi. Birida boshqa versiyalardagi kabi qahramon real ota-onadan tug‘ilsa, ikkinchi talqinga ko‘ra qahramonni bokira qiz ilohiy homila natijasida dunyoga keltiradi.



Folklorshunos T.Mirzayev baxshilar tomonidan yozib olingan "Go'ro'g'li" turkumiga mansub asarlar sonini aniq keltiradi. Uning aytishicha, Ergash Jumanbulbul o'g'li 5 ta, Fozil Yo'ldosh o'g'li 10 ta, Po'ltan shoirdan 16 ta, Bekmurod Jo'raboy o'g'li 2 ta, Saidmurod Panoh o'g'li 1 ta, Umir Safar o'g'li 3 ta, Mardonqul Avliyoqul o'g'li 2 ta, Rahmatulla Yusuf o'g'li 27 ta doston yozib olingan. Ushbu dostonlarning ba'zilarini alloma Hodi Zarif Go'ro'g'li hayotining bosqichlariga qarab tasniflab chiqqan. Bunda Go'ro'g'lining yoshi asos bo'lgan: 1. Go'ro'g'lining tug'ilishi. 2. Go'ro'g'lining bolaligi. 3. Chortoqli Chambil. 4. Zaydinoy. 5. Yunus pari. 6. Misqol pari. 7. Gulnor pari. 8. Qirq yigit bilan qirq qiz. 9. Hasan ko'lbar. 10. Rayhon arab. 11. Shohdorxon. 12. Zamonbek. 13. Xidirali elbegi. 14. Berdiyor otaliq. 15. Elomon. 16. Xoldorxon. 17. Soqibulbul. 18. Go'ro'g'lining Qrimga borishi. 19. Govdaro dev. 20. Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi. 21. Shoqalandar. 22. Ro'zaxon. 23. Yosqila. 24. Hasanxon. 25. Chambil qamali. 26. Dalli. 27. Avazxon. 28. Gulqizoy. 29. Oygul qizning vafoti. 30. Intizor. 31. Malika ayyor". 32. Mashriqo. 33. Zulfizar. 34. Bo'tako'z. 35. Qunduz bilan Yulduz. 36. Sarvinoz. 37. Balogardon. 38. Avazning arazi. 39. Ahmad Sardorning o'limga buyurilishi. 40. Avaz o'g'lonning Rumga qochishi. 41. Avazxonning o'limga hukm etilishi. 42. Girdob. 43. Xonimoy. 44. Avaz va Gultan. 45. Xushkeldi. 46. Oltin qovoq. 47. Zayidqul. 48. Gulxiromon. 49. Zarnigor. 50. Og'a Yunusning olib qochilishi. 51. Ravshan. 52. Nurali. 53. Nuralining yoshligi. 54. Balxivon. 55. Jorxon maston. 56. Sumbulsoch beka. 57. Nurali va Qari Ahmad. 58. Nuralining yutilishi. 59. Malla savdogar. 60. Jahongir. 61. Ero'g'li ("Shahidnoma", "Go'ro'g'lining o'limi", "Go'ro'g'lining g'oyib bo'lishi"). Shu o'rinda aytish kerakki, o'zbek "Go'ro'g'li" turkumining tasnifi faqat Hodi Zarif tomonidan qilingan emas. O'tgan asrning eng katta baxshilaridan Rahmatulla Yusuf o'g'li ham bu tasnifni tuzgan: 1. Go'ro'g'lining tug'ilib o'sishi. 2. Go'ro'g'lining bolaligi Chortoqli Chambil. 4. Rayhon arab. 5. Yunus bilan Misqol. 6. Hasanxon. 7. Qirq yigit va qirq qiz. 8. Go'ro'g'libekning Avazxonni olib kelgani. 9. Xon dalli (Hasanxon). 10. Avazxonning qochishi. 11. Avazxonning uylanishi. 12. Govdaro dev. 13. Chambilga besh podshoning yov bo'lib kelishi. 14. Sarvinoz. 15. Hasan ko'lbar voqeasi. 16. Go'ro'g'lining Ahmad Sardorni o'limga buyurishi. 17. Avaz o'g'lonning Rumga qochishi. 18. Balogardon. 19. Chambil qamali. 20. Oygulqizning vafoti. 21. Xushkeldi. 22. Qunduz bilan Yulduz. 24. Shoqalandar. 25. Ro'zaxon. 26. Yosqila. 27. Xiromon dalli". 28. Ravshanxon. 29. Bozorgan arab. 30. Shahidnoma (Go'ro'g'lining o'limi). Turkum dostonlarining soni haqida ham baxshilar o'rtasida har xil fikrlar mavjud. Ularning ko'pchiligi "Go'ro'g'li qirq doston", – deyilar. Nurotalik Bekmurod Jo'raboy o'g'lining "Avazning arazi" dostonida kuylashicha, uning ustozlari Go'ro'g'lini "Oltmish to'rt doston qip ta'rif etgan". Janubiy Tojikistondagi o'zbek baxshilarining (soqilarining) naql qilishicha, XIX asrda yashagan mashhur dostonchi Qunduz soqi Go'ro'g'lini bir yuz yigirma shoxa (doston) qilib aytar ekan. Shunda ham Go'ro'g'li o'lganda, Yunus pari: "Bedoston o'tgan, to'ram", – deya yig'i bergan ekan. Folklorshunoslikda esa "Go'ro'g'li" turkumi qirq dostonidan iboratdir, degan fikr qat'iylashgan. Keyingi kuzatishlar turkumga kiruvchi dostonlar soni yetmishdan oshishini ma'lum etdi. "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari soni hozirgi o'rganilish holatida "O'zbek folklori" darsligida quyidagicha ko'rsatilgan: 1. Go'ro'g'lining tug'ilishi. 2. Go'ro'g'lining bolaligi. 3. Zaydinoy (Zulxumor, Go'ro'g'lining Rayhon arab qizini olib qochib kelishi). 4. Chortoqli Chambil. 5. Yunus pari. 6. Misqol pari. 7. Gulnor pari. 8. Qirq yigit bilan qirq qiz. 9. Soqibulbul. 10. Hasan ko'lbar. 11. Doniyorxo'ja – yozib olinmagan. 12. Shodmonbek – yozib olinmagan. 13. Berdiyor otaliq. 14. Xidirali elbegi. 15. Zamonbek. 16. Hilomon (Elomon). 17. Xoldorxon (Go'ro'g'lining Qrimga borishi). 18. Shohdorxon. 19. Shoqalandar. 20. Xushkeldi. 21. Rayhon arab. 22. Bektosh arab – yozib olinmagan. 23. Govdaro dev. 24. Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi. 25. Ro'zaxon. 26.



Yosqila. 27. Ahmad sardor va Hasan shoh – yozib olinmagan. 28. Ahmad sardor va Avazxon – yozib olinmagan. 29. Ahmad sardorning suyagi – yozib olinmagan. 30. Ahmad sardorning o'limga buyurilishi. 31. Hasanxon (Go'ro'g'libekning Hasanxonni olib kelishi). 32. Chambil qamali. 33. Dalli. 34. Avazxon (Go'ro'g'libekning Avazxonni olib kelishi). 35. Gulqizoy. 36. Gulqizoyning vafoti. 37. Intizor. 38. Malika ayyor (Gulshanbog', Tarkibadaxshon). 39. Mashriqo. 40. Zulfizar. 41. Xoldor buvish – yozib olinmagan. 42. Oydinoy – yozib olinmagan. 43. Bo'tako'z (Oqbilak oyim yoki Oqchishboyning qizi). 44. Qunduz bilan Yulduz. 45. Balogardon. 46. Avazxonning arazi (Avazxonning dor ostidan qutqarilishi). 47. Avaz o'g'lonning Runga qochishi. 48. Avazxonning o'limga hukm etilishi. 49. Sarvinoz. 50. Girdob. 51. Xonimoy. 52. Oyto'ra va Mastura. 53. Avaz va Gulton. 54. Oltin qovoq. 55. Zayidqul (Sakson nor). 56. Gulxiromon. 57. Zarnigor. 58. Avaz va Oyzaynab. 59. G'irotning o'g'irlanishi (Misqol pari va Avazxon) – yozib olinmagan. 60. Og'a Yunusning olib qochilishi. 61. Ravshan. 62. Nurali. 63. Nuralining yoshligi. 64. Sumbulsoch beka. 65. Balxuvon. 66. Jorxon maston. 67. Nurali va Qari Ahmad. 68. Nuralining yutilishi. 69. Malla savdogar. 70. Nurali va semurg'. 71. Sherali. 72. Sheralining uylanishi (Oynigor). 73. Jahongir. 74. Jahongirning yoshligi (Shahidlar darasi). 75. Ero'g'li (Shahidnoma, Go'ro'g'lining o'limi, Go'ro'g'lining g'oyib bo'lishi).

1.1. Dostonlarda boshlanmaning poetik va kompozitsion tabiati

Boshlama har vaqt badiiy asar strukturasida muhim o'rin tutadi. Yozma adabiyotdan farqli o'laroq, og'zaki ijodda muqaddimalar qat'iy, barqaror shaklga ega bo'lishi bilan bir qatorda, o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi va ijrochining iqtidorini belgilab beruvchi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Epik asarlarning eng yirik turlaridan biri bo'lgan dostonlar boshlanmasi garchand ertaklarnikiga o'xshab ketsa-da, faqat o'zigagina xos bo'lgan jihatlarga ham ega. Bu o'ziga xoslik birinchi navbatda ertakka nisbatan ancha keng qamrovli, epik ijodkor, ya'ni baxshi mahorati bilan bog'liq tarzda yuzaga chiqadi. Shuning uchun aytish mumkinki, dostonlardagi nasrda saj bilan keluvchi boshlamalarning pishiq puxtaligi, mazmunan boyligi, badiiyatiga qarab doston ijrochisining san'atkorlik darajasini belgilab berish mumkin bo'ladi. Epik ijoddagi muqaddimaning o'rganilishi, eng avvalo, doston strukturasining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Epik asar syujetining keyingi rivojini ta'minlab beradi. Dostonda kechayotgan joy, asosiy obrazlar, epik asarda turgan voqelikning mohiyatini tushuntiradi. Muqaddimada ko'pincha qahramon shajarasiga urg'u beriladi, unda tilga olingan qahramon shunchaki, oddiy bir qahramon emas, balki bevosita ko'k bilan, ilohiyot bilan bog'lanishi urg'ulanadi. Muqaddimalar har matnda, qahramonlik, romanik dostonlarda o'ziga xos tarzda beriladi. Bu boshlamalar, bir-biridan farqlanib tursa-da, ularda umumiy jihatlarda mavjud. Muqaddimalar:

1. Tinglovchini voqelikka tayyorlaydi, ya'ni ularni dostonning asosiy qahramonlari hamda voqea bo'lib o'tadigan joy bilan tanishtiradi.

2. Doston qamrab olgan voqelikning ko'lami naqadar keng ekanligini urg'ulaydi.

3. Badiiy asardagi motiv va syujetlarning rivojiga turtki beradi hamda ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi [Хондали 2023; 6]. Xalq dostonlar voqealarini bo'lgan, bo'layotgan hodisalar sifatida qabul qiladi va doston voqealari bayonida vaqt o'tishi davomida yuz beruvchi o'zgarishlar aynan o'sha nuqtayi-nazaridan ham saralanadi. Boshlanmalarda qo'llanadigan parallelizm, anafora, takror va saj' kabi poetik uslublar boshlanmaning ritmik qurilishini ta'minlaydi. Xususan, parallelizm turlaridan eng ko'p doston boshlanmalarida ritmik-sintaktik parallelizm qo'llaniladi, chunki epik xalq she'riyatining yuzaga kelishi aynan ritmik-sintaktik parallelizm hodisasi bilan bog'lanadi. Bunda ikki yoki undan ortiq motiv teng va o'xshash sintaktik birliklar orqali ifodalanadi. Xalq dostonlari boshlanmasida qo'llanadigan saj' san'ati ham o'zining ritmik funksiyasi orqali ritmik-sintaktik parallelizmni yuzaga keltiradi. Misol uchun, Islom shoir Nazar o'g'lidan yozib olingan "Zulfizar bilan Avazxon"



dostonining boshlanma qismini tahlil qilamiz: “*Sakson sardobali Chambil, to‘qson to‘pxonali Chambil, o‘n ming mehmonxonali Chambil, to‘rt ming jevaxonali Chambil, oti ovozali Chambil, oltin darvozali Chambil. Chambilning ovozasi ketdi, dong‘ini olam eshitdi. Zarbidan qarshi dushmanlar qon yutdi. Go‘ro‘g‘li minib chiqqanda G‘irotday otdi, Og‘o Yunus mehri tilab emizgan edi Avazday marddi. Xon Go‘ro‘g‘li Avazni to‘rt yil o‘qitdi, ta‘limin oldi domulla ustoddi, bildi alifi-nuqotdi, puxta chiqardi savoddi, Go‘ro‘g‘li egarlab mindirdi G‘irotdi. Avazxonga xizmatkor qildi qirq jalloddi, Avazning erlik nomi olamga ketdi*” [Зулфизар 2025; 169]. Boshlanmadagi ritmik-sintaktik parallelizm faqat saj’ va takrorlar orqali ifodalangan. Xuddi shunday Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Intizor” dostoni boshlanmasidagi ritmik-sintaktik parallelizm ham saj’ va takror orqali yuzaga chiqqan, biroq “Intizor” dostonida qo‘shimcha tarzda alliteratsiya hodisasi anaforik xususiyat kasb etganini ko‘rishimiz mumkin: “*Chambil Chambil bo‘lganda, Chambilga Go‘ro‘g‘li bek bo‘lganda, Chambilga odam to‘lganda Go‘ro‘g‘li beklik qilib, yilma-yil ovozasi baland bo‘lib, qirq shahardan qirq yigit kelib, Go‘ro‘g‘liga yigitlik qilib, Hasan, Avazni olib kelib, o‘g‘il qilib, necha shaharlar unga tobe bo‘lib, boshqa mamlakatlardan boj olib, Go‘ro‘g‘lining bekligi avj olib, Ashirbek, Yusufbek degan kishilarni lashkarboshi qilib, har qaysining necha ming Lashkari bo‘lib, urushsa hech yovdin qaytmay, tikilgan shaharlarni olib, Bolxivan shahrini ham o‘ziga tobe qilib ish ko‘rsatib yuraberdi. Go‘ro‘g‘li Chambilda katta bo‘lib turaberdi*” [Интизор 2025; 15].

Yuqorida aytilganidek, saj’ hodisasi ham boshlanmaning ritmik qurilishini ta‘minlashda ishtirok etadi. Xalq dostonlaridagi saj’ adabiyotdagidan farqli birliklardagi raviy elementining bor-yo‘qligi bilan tekshiriladi. Badiiy an‘analar, eng avvalo, dostonning tipik o‘rinlarida qo‘llangan saj’ san‘ati bilan izohlanadi. Shunday tipik o‘rinlardan biri dostonlar zachini bo‘lib, baxshi epik voqelik makoni va zamoni, doston qahramoni avlodining shajarasi, qahramonning mansabi, mavqeyini ravon bayon etish, ularning tinglovchi yodida mustahkam qolishini ta‘minlash hamda tinglovchilar diqqatini aytilmoqchi bo‘lgan dostonga kuchliroq jalb etish uchun saj’ san‘atini qo‘llaydi. Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining yirik vakili Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kuylagan doston boshlanmalarida saj’ murakkab, zanjirli ko‘rinishda beriladi: “*Burungi o‘tgan zamonda, el-yurti omonda, o‘zi qibla tomonda, Buxorodan tumanda, Taka-Yovmit deganda, Yovmit elida, Chambilning belida Go‘ro‘g‘libek davrini surib o‘tdi, dushmanning dodini berib o‘tdi. Qirq yigitni yig‘ib, dovulni tuyib, oltin piyolaga maylar quyib, araqqa bolni qotib, bolga araqni qotib, qirq yigitni yig‘dirib, silovsin to‘n kiydirib, kuniga kechkisin sergo‘sh t qilib, sermoyli palovga to‘ydirib, semiz qo‘ydan so‘ydirib, ko‘pkarisini choptirib, olomonga ola sarpo yoptirib, el-xalqning ko‘nglin toptirib, Yunus bilan Misqol parini Ko‘hi Qofdan, Iram bog‘idan keltirib, pari bilan o‘ynab-kulib, davrini surib, umr o‘tkarar edi*” [Хондалли 2023; 344]. Islom shoir Nazar o‘g‘lidan yozib olingan “Zulfizar bilan Avazxon” dostonining zachini quyidagicha saj‘langan: “*Sakson sardobali Chambil, to‘qson to‘pxonali Chambil, o‘n ming mehmonxonali Chambil, to‘rt ming jevaxonali Chambil, oti ovozali Chambil, oltin darvozali Chambil. Chambilning ovozasi ketdi, dong‘ini olam eshitdi. Zarbidan qarshi dushmanlar qon yutdi. Go‘ro‘g‘li minib chiqqanda G‘irotday otdi, Og‘o Yunus mehri tilab emizgan edi Avazday marddi. Xon Go‘ro‘g‘li Avazni to‘rt yil o‘qitdi, ta‘limin oldi domulla ustoddi, bildi alifi-nuqotdi, puxta chiqardi savoddi, Go‘ro‘g‘li egarlab mindirdi G‘irotdi. Avazxonga xizmatkor qildi qirq jalloddi, Avazning erlik nomi olamga ketdi*” [Зулфизар 2025; 344]”. Bunda saj’dan tashqari zachindagi ohangdorlik va ritmiklikni anaforik alliteratsiya ham kuchaytirmoqda. Masalan, birinchi ritmik gruppа “s”, ikkinchi ritmik gruppа “t”, uchinchi ritmik gruppа “o” unli tovushi orqali ta‘kidlanmoqda. Ritmik gruppalar oxirini esa takrorlanuvchi “Chambil” so‘zi ta‘kidlaydi. Xullas, bunday zachinda evfoniya va ritmika hosil qiluvchi vosita uchta bo‘lib, ular saj’, alliteratsiya va takror hisoblanadi. Folklorshunos olim dostonchilik maktablari orasida Bulung‘ur dostonchilik



maktabining ko'zga ko'ringan namoyandasi Fozil Yo'ldosh o'g'li ijro etgan dostonlar zachinidagi saj' nisbatan qashshoqligi hamda qahramonlik eposiga xos ekanligi bilan ajralib turadi. Masalan, "Intizor" dostonining zachinini olsak: *"Chambil Chambil bo'lganda, Chambilga Go'ro'g'li bek bo'lganda, Chambilga odam to'lganda Go'ro'g'li beklilik qilib, yilma-yil ovozi baland bo'lib, qirq shahardan qirq yigit kelib, Go'ro'g'liga yigitlik qilib, Hasan, Avazni olib kelib, o'g'il qilib, necha shaharlar unga tobe bo'lib, boshqa mamlakatlardan boj olib, Go'ro'g'lining bekligi avj olib, Ashirbek, Yusufbek degan kishilarni lashkarboshi qilib, har qaysining necha ming Lashkari bo'lib, urushsa hech yovdin qaytmay, tikilgan shaharlarni olib, Bolxivan shahrini ham o'ziga tobe qilib ish ko'rsatib yurabardi. Go'ro'g'li Chambilda katta bo'lib turabardi"*[Интизор 2025; 15]. Baxshi o'zi kuylagan dostonlarga oddiylilik va mubolag'a ruhini singdirib yuborganligi uchun uning dostonlari boshlanmasida saj' kam uchraydi [Саримсоқов 1978;66].

Bundan tashqari tahlilga tortilgan doston boshlanmalarida umumiylik va o'ziga xos individual holatlar qayd etildi. Shundan kelib chiqib, shartli ravishda boshlanmalarni ikki guruhga:

1. An'anaviy boshlanmalar;
2. Individual boshlanmalarga bo'lish mumkin.

An'anaviy boshlanmalar ko'plab dostonchilik maktablari vakillariga birdek tanish bo'lib, umumiy xarakterga ega bo'ladi. Tahlil jarayonida Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan shoir, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Islom shoir Nazar o'g'li, Egamberdi Ollamurod o'g'li va Jo'ra Eshmirza o'g'li kabi baxshilar kuylagan dostonlarda boshlanmalarning umumiy xarakterga ega ekanligiga guvoh bo'ldik. Bu kabi boshlanmalarda epik vaqt va makon tasviri, ularni ifodalash usullari bir-biriga o'xshash va bu turdagi boshlanmalarni qadimiy talqinga yaqin deb aytishimiz mumkin. Misol sifatida, Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan "Malikayi ayyor" dostonining boshlanmasini keltirish mumkin: *"Go'ro'g'lining yurtini Chambil deydi. Chambil qanday Chambil shunday Chambil: oltmish otxonali, yetmish jevaxonali, sakson sardobali, to'qson to'pxonali Chambil. Chambil elida Go'ro'g'li zo'rabor, qirq olti sardor, to'rt yarim lak bedovsuvor, chiltanlarning biri Soqibulbul, degan sayisi bor. Go'ro'g'li zo'r deb ta'rifi ketgan, zarbasi toshdan o'tgan, ul Go'ro'g'li keldi, desa yig'lab yotgan bolasini yupatgan, Isfahonda ishlatgan qilichining ishlovi yetgan, tekkan omon qolmasin, deb zaharning suvin yalatgan, Chambilda davronni surib yotar Go'ro'g'li sulton"*[Маликайи айёр 2025; 8].

Individual boshlanmalar esa ayrim baxshi ijodida ko'zga tashlanadigan, boshqa maktab vakillarida uchramaydigan xususiy xarakterdagi ega boshlanmalar hisoblanadi. Bunday boshlanmalarni esa asosan Qo'rg'on dostonchilik maktabining atoqli vakili Rahmatulla Yusuf o'g'li va yana Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Hazratqul Xudoyberdiyev, Chorshanbi baxshi va Qahhor baxshi Rahimov kabi baxshilar ijodida uchratish mumkin. Masalan:

*Go'ro'g'lidan so'z boshlaylik,
Hozir boshqa so'zni yig'ib tashlaylik,
Turkman, o'zbek, Kavkaz elning botiri,
Sifatin aytmoqqa buning shoshmaylik.
Ul o'tgan so'ng necha yillar o'tibdi,
Har bir joyga uning ta'rifi ketibdi,
Botirlikda kamligi yo'q Go'ro'g'li,
Ko'hiqofga uning dong'i yetibdi...*

Qani soz nima deydi, sozanda nima deydi, maqom bilan so'z nima deydi. Ko'z bilan ko'rganday, quloq bilan eshitganday, timsol bilan keltirib aytadigan biz, tinglaydigan siz. Qanday qilib aytamiz so'z ma'nosiga tushib tinglasangiz"[Авазнинг арази 1965; 9].

Bekmurod Jo'raboy o'g'lidan yozib olingan "Avazning arazi" dostonida an'anaviy boshlanmadan oldin "Go'ro'g'li" turkum dostonlariga taalluqli voqealar she'rga solib kuylangan. She'riy qism yakuniga yetgach, nasriy qism boshlangan va unda baxshi auditoriyaga o'z murojaatini yo'llagan. Bu tarzda tinglovchilarga butun turkum haqida ma'lumot berib, ularning diqqatini o'ziga qaratib, so'ngra doston boshlanmasiga o'tish holati faqat Bekmurod Jo'raboy o'g'li ijodida ko'zga tashlanadi.

Biz tadqiqot uchun "Go'ro'g'li" turkumidan 22 ta, variantlar bilan hisoblaganda esa 32ta dostonning boshlanmasidan foydalandik. Yuqoridagi boshlanma turlariga ko'ra bu dostonlarni tasnif qilganimizda

Po'ltan baxshidan yozib olingan ushbu "Gulnor pari" dostonining boshlanmasi nashrga tayyorlovchilar tomonidan shartli ravishda kiritilgan va shunday izoh berilgan: *"Gulnor pari" dostoni "Misqol pari" dostoni bilan ketma-ket yozib olinganligi uchun, bu dostonning boshlanish qismi yozilmagan. Shu sababli biz bu qismni Po'ltan shoirining o'zidan yozib olingan "Avazxon" dostonidan olib kiritdik*" [Гулнор пари 1965;19].

Adabiy tilning rivojida sheva va lahjalar o'zining munosib o'rniga ega. Shevalar vositasida adabiy til boyiydi hamda taraqqiy etadi. Xalq tilidagi qayd etilgan sheva, lahja, dialekt, adabiy til, milliy til kabi tushunchalarning o'ziga xos jihatlari o'zaro munosabatlari, farqli tomonlari, shakllanish davrlari va ta'riflari anchagina o'rganilgan va ular asosida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.
2. Abdullayev F.A. Xorazm shevalari. – Toshkent, Fan, 1961. 249-bet.
3. Абдурахмонов Д. Қорлуқлар ва уларнинг тили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 1987. – № 3.
4. Абдурахмонов Д., Содиқов Т., Носиров Ш., Туробова М. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 101.
5. Allaberdiyev A. Buxoro o'g'uz shevalari leksikasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2013, 6-son, 81-86 b.
6. Мирзаев М. М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. Б.
7. Кудратов Т. Ўзбек тилининг оралик шевалари: Фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1968. – 260 б.
8. Turdaliyev A. Denov shevalarini areal o'rganish va til korpusiga joylashtirish. – Toshkent, 2025. – 136.
9. Гайбуллаев С. Қоракўл шевасининг таровати. – Тошкент: Ниҳол, 2017. – 196 б.
10. Гулнор пари/ Айтувчи: Айтувчи: Муҳаммад Жомрод ўғли Пўлкан/ Гўрўғли дostonлари. Нашрга тайёрловчилар: М.Саидов З. Хўсаинова. – Тошкент: Фан 1965. Б. 19